



**O'ZGALAR MULKINI TALON-TAROJ QILISH BILAN BOG'LIQ
JINOYATLARNI TERGOV QILISHNING O'ZIGA XOS XOS
XUSUSIYATLARI**

Qosimov Mirkamol Bahtiyor o'g'li
Obidova Ozoda Rufat qizi

Namangan davlat universiteti

Yuridik fakulteti yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

Qosimovm245@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida o'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi. Matnda mulk huquqlari va mulkiy munosabatlarni muhofaza qilish zaruriyati, bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o'zlashtirish va rastrata qilish, firibgarlik hamda o'g'irlik jinoyatlari moddalari, ularning obyekti, predmeti va subyekti jihatidan farqlari keltirilgan. Shu bilan birga, jinoyatlarni profilaktika qilish, huquqiy ongni oshirish va jamiyatdagi mulkiy xavfsizlikni ta'minlash choralari ham muhokama qilinadi. Annotatsiya amaliy va nazariy jihatdan o'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar tergov va huquqni muhofaza qilish faoliyati uchun ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: O'zgalar mulki, mol-mulk huquqlari, jinoyat, talon-taroj qilish, bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o'zlashtirish.

O'zbekiston respublikasida so'nggi yillarda insonlarning huquq erkinliklari va qonuniy manfaatlari kafolatlangan huquqiy demokratik davlat qurish yo'lida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda yuz berayotgan so'nggi iqtisodiy o'zgarishlar jamiyatimizda mulkka oid munosabatlarni ko'paytirmoqda. Natijada esa mulkiy munosabatlarni tartibga solish, ularni turli tajovuzlardan asrash, mulkchilikning turli shakllarini muhofaza etish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra mulk dahlsizdir va mulkchilik shaklidan qat'i nazar davlat uni muhoza etadi.

O'zgalar mulkining talon taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar shaxslarning, korxona, tashkilot, muassalarning mulkka bo'lgan huquqlarini poymol qilib, jamiyatdagi normal mulkiy munosabatlarni izdan chiqarivchi ijtimoiy xavfli qilmishlar hisoblanadi. Ushbu qilmishlar davlat uchun ham jamiyat uchun birdek xavfli hisoblanadi. O'zgalar mol-mulkini talon taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar fuqarolarda ishonchsizlik va qo'rquv hissini keltirib chiqaradi, mol-mulk va hayot xavsizligi xavf ostida qola boshlaydi.



Ushbu toifadagi jinoyatlar aholi ongiga ayniqsa yoshlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularda oson boylik orttirish, turli qing'ir yo'llar bilan oson mol mulk orttirish kayfiyatini shakllanib qolishiga sabab bo'ladi.

Bu kabi salbiy oqibatlarni oldini olish uchun o'zgalar mulkining talon taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi faol kurashish, jinoyatlar o'z vaqtida va to'la ochib, aybdorlarni adolatli jazolash, aholi o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish va jinoyatlarni qayta sodir etilishini oldini olish maqsadida profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish zarur.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi X bobida o'zgalar mulkini talon taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar guruhlashtirilgan. Ushbu jinoyatlar guruhiga bosqinchilik (164-modda), tovlamachilik (165-modda), talonchilik (166-modda), o'zlashtirish va rastrata qilish (167-modda), firibgarlik (168-modda), o'g'irlik (169-modda) kiradi.

O'zgalar mulkini talon taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun ushbu jinoyatlar tarkibidagi elementlarning o'ziga xos o'xshash va farqli jihatlarini inobatga olish zarur. Quyida ushbu jinoyatlarni ayrim o'xshash va farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Amaldagi jinoyat kodeksiga ko'ra:

5. Bosqinchilik - o'zganing mol-mulkini talon-taroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish.

6. Tovlamachilik - jabrlanuvchiga yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchining axborot resursini yo'q qilish, o'zgartirish, egallab olish yoki to'sib qo'yish yoki jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish, uni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish bilan qo'rqitib o'zgadan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o'zining mulkini yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish.

Bosqinchilik jinoyatining asosiy bevosita obyekti mol-mulkni muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar, qo'shimcha bevosita obyekti esa shaxsning hayot yoki sog'ligini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar. Tovlamachilik jinoyatining asosiy obyekti - mol-mulkni muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar, qo'shimcha bevosita obyekti - shaxsiy huquqlarni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar. Bosqinchilik jinoyatining predmeti - o'zganing mol-mulki hisoblanadi, tovlamachilik jinoyatining predmeti doirasi bir muncha kengroq. Mol-mulkdan tashqari, mol-mulkka bo'lgan huquqlar, mulkiy yo'sindagi harakatlar, mulkiy manfaatlar bo'lishi mumkin. Masalan, merosdan



voz kechish, xizmat ko'rsatish, shartnoma bo'yicha ulushlar olishni o'zga shaxsga o'tkazish va hokazolar. Bosqinchilik va tovlamachilik jinoyatlarining obyektiv tomonida zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish elementi mavjud bo'lib, bu holat amaliyotda jinoyatlarga to'g'ri baho berishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bosqinchilik jinoyatida shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, uning mol-mulkini egallab olish va keyinchalik egallab olingan mol-mulkni o'zida saqlab qolish vositasi bo'lsa, tovlamachilik jinoyatida qo'rqitish tovlamachilikni sodir qilayotgan shaxsning talablarini bajarish uchun jabrlanuvchi irodasini sindirish vositasi sifatida foydalaniladi. Bosqinchilik va talonchilik jinoyatlarida o'zganing mol-mulkini egallab olish zo'rlik ishlatish bilan bir paytda sodir qilinadi, tovlamachilik jinoyatida esa yuqorida aytib o'tilgan jinoyat predmetlaridan biri tovlamachi tomonidan kelajakda qo'lga kiritiladi.

Talonchilik jinoyati ham zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish orqali sodir etilishi mumkin. Lekin bosqinchilik va tovlamachilikda ishlatiladigan zo'rlik hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lsa, talonchilikda ishlatiladigan zo'rlik xususiyati jihatidan hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lmagan bo'ladi.

Tovlamachilik va bosqinchilik jinoyatlarida subyekt 14 yoshga to'lgan aqli raso shaxs hisoblanadi. Subyektiv tomondan esa to'g'ri qasddan, g'arazli niyatlarda sodir etiladi. Jinoyat kodeksining 167-moddasida o'zlashtirish va rastrata qilish jinoyati belgilangan. O'zlashtirish va rastrata qilish jinoyatining subyekti boshqa turdagi talon taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlardan farq qiladi. Ushbu jinoyatning subyekti maxsus subyekt hisoblanib, 16 yoshga to'lgan va o'zganing mol-mulki ishonib topshirilgan yoxud ixtiyoriga berilgan, aqli raso, jismoniy shaxs.

O'zlashtirish va rastrata qilish jinoyatini vaqtincha qarzga olish, firibgarlik va o'g'irlikdan farqlash zarur. O'zlashtirish va rastrata qilish jinoyati vaqtincha qarzga olish bilan subyektiv tomon belgisiga ko'ra farqlanadi. O'zlashtirish va rastrata qilish jinoyati subyektiv tomondan g'arazli niyat bilan sodir qilinadi. Vaqtincha qarzga olishda esa, shaxs o'ziga ishonib topshirilgan mol-mulkdan foydalanayotganda mazkur mulkni keyinchalik mulkdorga qaytarish niyatida harakat qiladi. Masalan sotuvchi kassadan keyinchalik qaytarish niyati bilan pullarni yoki buyumlarni oladi. O'zlashtirish va rastrata qilish jinoyati bilan o'g'irlik jinoyatining farqi shundaki, ushbu jinoyatlar subyektlarida talon taroj qilinayotgan mol-mulkka nisbatan vakolatlar ikki xil bo'ladi. O'zlashtirish va rastrata qilish jinoyatida mol-mulk aybdorga ishonib topshirilgan bo'ladi shuningdek aybdorda mulkni boshqarish, tashish, saqlash, tarqatish bo'yicha qonuniy vakolatlar bo'ladi. O'g'irlik jinoyatida esa o'zganing mol-mulkini talon taroj qilayotgan shaxsning ushbu mulkka nisbatan biror bir qonuniy asosga ko'ra aloqasi bo'lmaydi. Masalan, omborxona



qoruvilining ombordagi ashyolar yoki mol-mulkni talon taroj qilishi o'g'irlik sifatida baholanishi lozim.

O'zlashtirish va rastrata qilish jinoyati bilan firibgarlik jinoyatining o'zaro o'xshash jihati shundaki, har ikkala jinoyatda ham aybdorga mol-mulk jabrlanuvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda topshiriladi. Yuqoridagi ikki jinoiy qilmishlar tarkibidagi asosiy farq shundaki, o'zlashtirish va rastrata qilish jinoyatida mol-mulk aybdorga qonuniy asoslarga ko'ra topshirilsa, firibgarlik jinoyatida aybdor mol-mulkni aldash yoki ishonchini su'istemol qilish orqali qo'lga kiritadi.

Firibgarlik jinoyati o'zganing mol-mulkini aldash yoki ishonchini suiste'mol qilish yo'li bilan talon taroj qilish hisoblanadi. Amaliyotda jinoyat huquqi bilan tartibga solinadigan firibgarlik jinoyatining obyektiv tomoni belgilarini fuqaroviy-huquqiy nizolardan kelib chiqadigan ayrim nizolardan farqlash muammolari mavjud. Qonun talablariga muvofiq tuzilgan shartnoma va bitimlarda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik natijasida vujudga keladigan nizolar fuqarolik huquqiy normlari bilan tartibga solishga tegishli bo'lgani sababli, firibgarlik jinoyati sifatida baholanishi mumkin emas. Chunki ushbu holatda, jinoyatning asosiy belgilaridan biri bo'lgan huquqqa ziddlik yo'q. Chunki fuqarolik qonunchiligiga ko'ra shartnoma va bitimlar tomonlarning o'z erk-irodasiga muvofiq ixtiyoriy ravishda tuziladi. Masalan, qarz shartnomasi bo'yicha qarzdor o'z majburiyatlarini baja olmasligi natijasida qarz bergan shaxsga mulkiy zarar yetishi masalasi fuqarolik sudlari orqali hal etilishi zarur. Shuningdek agar shaxs o'z majburiyatlarini uni bajarish davomida obyektiv sharoitlar vujudga kelgani sababli bajara olmasa va shaxsda o'zganing mol-mulkini yoki mol-mulkga bo'lgan huquqini qo'lga kiritishga qaratilgan qasd va g'arazli niyat bo'lmasa yoxud isbotlashni imkoni bo'lmasa, ushbu nizolar ham iqtisodiy yoki fuqarolik sudlari tartibida hal qilinishi zarur. Firibgarlik jinoyatining predmeti tovlamachilik jinoyatining predmetiga o'xshash ravishda nafaqat o'zganing mol-mulki, balki mol-mulkga bo'lgan huquqi ham bo'lishi mumkin.

O'zgalar mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar jamiyat xavfsizligi va mulkiy munosabatlarni himoya qilishda katta ahamiyatga ega. Ushbu jinoyatlar- bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o'zlashtirish va rastrata qilish, firibgarlik hamda o'g'irlik - turli obyekt, predmeti va subyekti bilan farqlanadi, shuning uchun ularni tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Jinoyatlarni ochish va profilaktika qilish, huquqiy ongni oshirish va jamiyatda mol-mulk xavfsizligini ta'minlash choralari samarali huquqni muhofaza qilish tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur jinoyatlar tergov va tadqiqoti nafaqat amaliy, balki nazariy



jihatdan ham muhimdir, chunki ular jinoyat huquqi sohasidagi tadqiqotlar va qonun ustuvorligini ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Toshkent: Adolat nashriyoti, 2023.
2. Rustambayev. A. "jinoyat kodeksi sharh". Toshkent: Yuridik publish, 2018
3. Rasulov, Sh. "Jinoyat huquqi va tergov asoslari". Toshkent: Yuridik nashriyot, 2022.
4. Qodirov, A. "O'zgalar mulkini himoya qilish va jinoyatlarni tergov qilish". Toshkent: Huquq va jamiyat, 2021.
5. Islomov, T. "Huquqiy madaniyat va profilaktika choralari". Toshkent: Huquqiy tadqiqotlar, 2022.
6. Karimov, D. "Mol-mulk jinoyatlari: nazariya va amaliyot". Toshkent: Yuridik fan, 2023.